

OLIV TA'LIM MUASSASALARDA KIMYO O'QITUVCHILARI TAYYORLASH MUAMMOSINING NAZARIY BOSQICHARI

O.O'.O'rinova

Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi

Jahonda raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, xalqaro standartlarga moslashtirish, bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning istiqbolli ta'lim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Jamiyatning intellektual imkoniyatlarini orttirish, sivilizatsion raqobat muhitiga moslashuvchan, kompetentli pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi nafaqat pedagogika oliy ta'lim muassasalari, balki, universitetlar miqyosida ham keng raqobat muhitini shakllantiroqda.

Dunyoda bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga molik. SHu jihatdan universitetlar miqyosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash jarayonlarni zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalashtirish, innovatsion kasbiy-ta'limiy dasturlar samaradorligini oshirish, metodikasini takomillashtirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq qilish zarurati izohlanadi.

Respublikamizda oliy ta'lim mazmuni va tarkibini diversifikatsiyalash uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida mutaxassislarining o'z o'rnini topa olish masalasi ustuvor bo'lgan jamiyatning zamonaviy ehtiyojlarini qondira oladigan kompetentli kadrlarni tayyorlash muammosini yanada chuqurlashtirdi. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti talablari va kuchli raqobat muhitida kasbiy ta'lim mazmuni va tarkibining sezilarli darajada yangilanishi kuzatilmoqda.

Pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o'quv-me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; .." kabi vazifalari belgilangan.

Hududlar miqyosida pedagog kadrlar tayyorlash muammosining amaliy echimi sifatida universitetlar qoshida pedagogika institutlarining tashkil etildi. Pedagogika institutlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning uslubiy ta'minotini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Universitetlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy tendensiyalari sifatida birinchi navbatda ijtimoiy muassasa va mehnat bozori ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatlari, shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishga bo'lgan zaruratning o'sib borishi, chet elda o'qishni davom ettirish va ishga joylashish imkoniyatlari aniqlanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari va jamiyatning ijtimoiy talablarini birlashtiruvchi kuchli integratsion omili sifatida qo'shimcha kasbiy ma'lumotga ega

bo'lishning ahamiyati sezilarli darajada o'sib bormoqda. SHu bois, universitetlarda pedagog kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj oliy ta'lim muassasalari o'rtasida kuchli raqobat muhitini yuzaga keltirish bilan birga ularning kasbiy tayyorgarligiga o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Universitetlar tajribasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash zarur faoliyat turi hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash zarurati, birinchidan, o'zining shaxsiy ma'lumoti mazmunini shakllantirishdagi shaxs huquqlarining oshishi, ikkinchidan, ish beruvchilarning mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarning kengayganligi bilan izohlanadi. Universitetlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash oliy ta'lim muassasasi tomonidan iste'molchiga mavjud oliy kasbiy ta'lim asosida hamda muvofiq darajadagi oliy kasbiy ma'lumotning ta'lim dasturini o'zlashtirish davrida ham ko'rsatilishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga bo'lgan zaruratning asosiy mutaxassislik mazmunidan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilganligi ortiqcha izoh talab etmaydi.

Oliy kasbiy ma'lumotning ta'lim dasturini o'zlashtirish davrida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash haqiqatdan ham tayyorgarlikning asosiy mutaxassislik mazmunini diversifikatsiya qilishni nazarda tutadi. Akademik faoliyatning bunday turdagi diversifikatsiya qilish ehtimoli ta'lim yo'nalishlarining quyidagi turlariga olib keladi:

- kimyo yo'nalishi DTS malaka talablari ta'lim dasturlarining taxminiy o'quv rejasi bo'yicha o'qituvchi kasbiy faoliyatiga chuqurlashtirilgan yo'nalishda o'qitish;
- DTS ta'lim dasturlarining taxminiy o'quv rejasi bo'yicha qo'shimcha malakaga o'qitish.

Pedagogik lug'atda aytilishicha, qo'shimcha ta'lim xizmatlari – bu korporativ (tarmoqli, sohaviy) talablarni aks ettiruvchi maxsus va tayanch kompetensiyalar yig'indisi, “kompetensiya” tushunchasiga esa ensiklopedik lug'atda quyidagicha ta'rif berilgan:

“1) aniq organ yoki mansabdor shaxsga nisbatan qonun, nizom yoki boshqa dalolatnomada taqdim etilgan vakolatlar majmui. 2) muayyan sohadagi bilim va tajriba”. S.I.Ojegovning izohli lug'atida “kompetensiya” tushunchasi “1) kimningdir muayyan masalalardan (bilimlardan) yaxshigina xabardor ekanligi, 2) kimningdir vakolat, huquqlari majmuasi” sifatida talqin qilingan. Bundan kelib chiqqan holda malakaning tayanch darajasiga nisbatan qo'shimcha malaka tamoyili o'quvchilar uchun kompetensiyalarni tanlash va kengaytirish hamda kasbiy jamoatchilikka kasbiy faoliyat sifatini oshirish imkonini beradi.

Mazkur tizimdagi maqsadli yo'nalishlar quyidagilardan iborat: ijtimoiy buyurtmachilarning o'qitish natijasi sifatiga nisbatan ehtiyojlarini qondirish, malaka talablarining kasbiy kompetensiyalar standartlari sifatida qo'shimcha malakaviy standartlar bilan to'ldirish uchun yangi qadriyatli asoslarni shakllantirish, shuningdek kasbiy ta'limning amaliy jihatiga urg'u berish. Taqdim etilgan maqsadlarga muvofiq

ravishda universitetlarda bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni quyidagi darajalari mavjud:

birinchi daraja: talabalarning kimyo faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyatda qo'llay olish bilan bog'liq ta'limiy kompetensiyalari;

ikkinchi daraja: mutaxassislikka doir DTS malaka talablariga kiritilgan barcha fanlar bo'yicha predmetusti xarakterga ega bo'lgan kompetensiyalar;

uchinchi daraja: mutaxassislik salohiyatini kengaytiruvchi kompetensiyalar yig'indisi sifatidagi kasbiy kompetensiyalar.

Qo'shimcha ta'lim dasturlari tarkibidagi fanlar yagona malakaviy makonni shakllantirish hamda malakaviy va ta'limiy talablar izchilligi asosida mutaxassislarni tayyorlash, o'quv-metodik hujjatlarning kompetentlilik tarkibi va o'quv jarayonini tashkil etishning kombinatsion shakllarini ishlab chiqishda ishtirok etadi; o'quv jarayonini boshqarish tuzilmasini markazlashtirishning oldini olish va boshqaruv vazifalari va mexanizmlarini markazlashtirmaslik jarayoni amalga oshiriladi.

Shu bilan birgalikda ta'limning zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilishi talaba va o'qituvchilarning zamon talablariga mos ravishda bilim berishlarini ta'minlaydi. No'an'anaviy dars o'tishda interfaol usul va uslublardan foydalanish nafaqat o'qituvchini balki talabalarni ham yangicha yondashuvga, yangicha fikrlashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish (ingliz tili materiiallari misolida). Diss.avtoref. Samaraqand -2019 y.– 52 b.

2. Babadjonov S.S. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoref. diss. (PhD). –Toshkent, TDPU-2018, – 44 s.